
Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

# ZIYORAT VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH, BUXORO VILOYATIDA TURIZM MAVSUMIYLIGINI KAMAYTIRISHNING DIVERSIFIKATSIYA ZAXIRASI

**Xalimov G‘ayrat**

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

e-mail: khalimovgayrat@outlook.com



***Annotatsiya:*** tezisda Buxoro viloyatida ziyorat va ekoturizm yo‘nalishlarining 2017–2025 yillardagi rasmiy statistik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ularning turizm mavsumiyligini kamaytirish salohiyati baholanadi. Aniqlanishicha, ziyoratgohlarga tushgan daromad shu davrda 394,6 foizga oshgan, biroq bu segment jami mahalliy turizm daromadining atigi 0,5 foizini tashkil etadi. Bunday nomutanosiblik, yuqori o‘sish sur'ati va past bazaviy ulush, ziyorat va ekoturizmning hali to‘liq ishga solinmagan diversifikatsiya zaxirasi ekanligidan dalolat beradi. Tezisda ushbu salohiyatni amalga oshirish bo‘yicha takliflar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** ziyorat turizmi, ekoturizm, diversifikatsiya, turizm mavsumiyligi, turizm turlari, xizmat sifati.

Turizm mavsumiyligini kamaytirishning tan olingan usullaridan biri, talabni yil davomida barqarorroq bo‘lgan mahsulot turlari hisobiga diversifikatsiya qilishdir (Getz, 1991; Hall & Page, 2014). Iqlim va bayram taqvimiga qattiq bog‘liq bo‘lgan an'anaviy me’moriy-ta’rixiy sayohatlardan farqli o‘laroq, ziyorat turizmi (diniy-ma’naviy ob'ektlarga tashrif) va ekoturizm (tabiiy hududlarga sayohat) nisbatan kengroq mavsumiy oynaga ega bo‘lishi mumkin, chunki ziyoratgohlarning aksariyati yopiq yoki yarim yopiq maydonlarda joylashgan va diniy amaliyot yil bo‘yi davom etadi. Eshtayev (2023) tomonidan aniqlanishicha, O‘zbekistonda yanvar, fevral, iyul va dekabr oylari turizm uchun noqulay mavsum hisoblanadi, aynan shu davrlarda ziyorat va ekoturizm kabi yo‘nalishlar talabni qisman qoplashi mumkin.

Ushbu tezisning maqsadi, Buxoro viloyatida ziyorat va ekoturizm yo‘nalishlarining 2017–2025 yillardagi o‘sish dinamikasini jami turizm ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash orqali ularning mavsumiylikni kamaytirishdagi diversifikatsiya salohiyatini baholashdan iborat.

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2025 yillarda Buxoro viloyatida ziyorat turizmi obyektlari soni 24 tadan 51 taga, ya’ni 112,5 foizga oshgan. Ziyoratgohlarga tushgan daromad esa yanada tezroq, 394,6 foizga oshib, 1,03 milliard so‘mdan 5,1 milliard so‘mgacha yetgan. Ekoturizm obyektlari soni 17 tadan 28 taga, ya’ni 64,7 foizga ko‘paygan. Qiyoslash uchun, shu davrda viloyatga tashrif buyurgan jami turistlar soni 489,4 foizga o‘sgan (1-jadval).

***1-jadval***


***Ziyorat va ekoturizm ko‘rsatkichlarining dinamikasi, 2017 va 2025 yy.***

| **Ko‘rsatkich** | **2017** | **2025** | **O‘sish sur’ati (%)** |
|---|---|---|---|
| Ziyorat obyektlari soni (birlik) | 24 | 51 | +112,5 |
| Ziyoratgohlarga tushgan daromad (mlrd. so‘m) | 1,03 | 5,10 | +394,6 |
| Ekoturizm obyektlari soni (birlik) | 17 | 28 | +64,7 |
| Jami turistlar soni (nafar) | 1 269 965 | 7 485 300 | +489,4 |

Diqqatga sazovor jihati shundaki, ziyoratgoh daromadining o‘sish sur'ati (394,6%) jami turistlar sonining o‘sish sur'atiga (489,4%) deyarli yaqinlashgan, ya’ni bu segment umumiy tarmoq bilan bir xil qadamda rivojlanmoqda. Biroq mutlaq ko‘rsatkichlarda ziyoratgohlarga tushgan daromad (5,1 mlrd. so‘m) 2025 yildagi jami mahalliy sayyohlar tushumining (956,7 mlrd. so‘m) atigi 0,5 foizini tashkil etadi. Bunday keskin nomutanosiblik, yuqori o‘sish sur'ati, ammo juda past bazaviy ulush, ziyorat va ekoturizm salohiyatining hali to‘liq ishga solinmaganini, ya’ni bu yo‘nalishlarda sezilarli "bo‘sh joy"

(headroom) mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa Martín-Martín va boshqalar (2020) ta’kidlagan qishloq va nostandart turizm shakllarining mavsumiylikni tekislashdagi o‘ziga xos rolini tasdiqlaydi.

Ekoturizm yo‘nalishining o‘zi bir jinsli emas, u hayvonot bog‘lari (zooparklar), suv havza va yurtalar majmualari hamda ekobog‘ va boshqa tabiiy obyektlarni o‘z ichiga oladi. Bu uch subsegmentning 2017–2025 yillardagi dinamikasini alohida ko‘rib chiqish muhim, chunki ular turlicha rivojlanish sur'atiga ega (1-rasm).





**1-rasm. Ekoturizm obyektlarining ichki tarkibi bo‘yicha dinamikasi**

Ma’lumotlarga ko‘ra, hayvonot bog‘lari (zooparklar) soni 2017–2025 yillar mobaynida umuman o‘zgarmagan (2 tadan 2 taga, 0% o‘sish), suv havza va yurtalar majmuasi 11 tadan 15 taga (+36,4%), ekobog‘ va boshqa obyektlar esa 6 tadan 9 taga (+50,0%) oshgan. Zooparklarning butunlay statik qolishi alohida e’tiborga loyiq: bu turdagi obyektlar odatda yopiq yoki qisman yopiq infratuzilmaga ega bo‘lib, ob-havo sharoitidan unchalik bog‘liq bo‘lmagan holda yil bo‘yi ishlashi mumkin, biroq Buxoro viloyatida bu segmentga so‘nggi to‘qqiz yilda amalda yangi investitsiya kiritilmagan. Bu, mavsumdan tashqari davrda ham talabni saqlab qolishi mumkin bo‘lgan, ammo e’tibordan chetda qolgan yo‘nalishlardan biridir.

Ziyorat turizmi ko‘rsatkichlarining yillik dinamikasini batafsil ko‘rib chiqish (2-rasm) muhim bir nuansni ochib beradi: obyektlar sonining 2017–2025 yillardagi umumiy 112,5 foizlik o‘sishi aslida bir tekis emas, balki asosan bitta yilga, 2022 yilga to‘g‘ri keladigan bir

martalik sakrashdan iborat (29 tadan 51 taga, ya’ni +75,9%). 2022 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan davrda esa obyektlar soni 51 tada o‘zgarishsiz qolgan. Shu bilan bir vaqtda, ziyoratgohlarga tushgan daromad 2022 yildan keyin ham izchil o‘sishda davom etmoqda: 1,8 milliard so‘mdan 5,1 milliard so‘mgacha, ya’ni yana 183,3 foizga oshgan.




**2-rasm. Ziyorat turizmi obyektlari soni va tushumining dinamikasi**

Bu holat shuni ko‘rsatadiki, 2022 yildan keyingi daromad o‘sishi yangi obyektlar ochilishi hisobiga emas, balki mavjud 51 ta obyektning har birida xizmat sifati, tashrif buyuruvchilar soni yoki narx darajasining oshishi (intensiv rivojlanish) hisobiga yuz bermoqda. Buni tasdiqlovchi ko‘rsatkich, bitta ziyorat obyektiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad: 2022 yilda 0,035 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 0,1 milliard so‘mgacha, ya’ni deyarli 3 baravar oshgan. Bu topilma muhim amaliy xulosaga olib keladi: agar davlat siyosati faqat yangi obyektlar sonini ko‘paytirishga qaratilsa (ekstensiv yondashuv), bu diversifikatsiya salohiyatining faqat bir qismini amalga oshiradi; mavjud obyektlarning xizmat sifati va infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan intensiv investitsiyalar esa hozircha asosiy o‘sish drayveri bo‘lib qolmoqda va bu yo‘nalish alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ziyorat va ekoturizm Buxoro viloyati uchun mavsumiylikni kamaytirishning real, ammo hali to‘liq ishga solinmagan zaxirasi hisoblanadi. Shu sababli quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, ziyorat turizmini reklama qilishni maxsus ravishda

past mavsum oylariga (yanvar, fevral, iyul, dekabr) mo‘ljallab tashkil etish; ikkinchidan, ekoturizm obyektlarini, xususan, so‘nggi to‘qqiz yilda o‘zgarishsiz qolgan hayvonot bog‘lari yo‘nalishini yangi investitsiyalar bilan kengaytirib, ularni sarguzasht turlari bilan uyg‘unlashtirib, past mavsum uchun alohida turistik paketlar ishlab chiqish; uchinchidan, mavjud 51 ta ziyorat obyektining xizmat sifati va infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan intensiv investitsiya dasturini yangi obyektlar qurilishi bilan muvozanatli ravishda olib borish; to‘rtinchidan, ziyorat va ekoturizm bo‘yicha oylik statistik hisobotni yo‘lga qo‘yish, bu esa kelgusida ushbu segmentlarning mavsumiylikni tekislashdagi real ta’sirini aniq o‘lchash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Getz, D. (1991). Festivals, Special Events, and Tourism. New York: Van Nostrand Reinhold.

2. Hall, C.M., & Page, S.J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space (4th ed.). London: Routledge.

3. Martín-Martín, J.M., Salinas-Fernández, J.A., Rodríguez-Martín, J.A., & Ostos Rey, M.D.S. (2020). Analysis of tourism seasonality as a factor limiting the sustainable development of rural areas. Journal of Hospitality & Tourism Research, 44(1), 45-75.

4. Cuccia, T., & Rizzo, I. (2011). Tourism seasonality in cultural destinations: Empirical evidence from Sicily. Tourism Management, 32(3), 589-595.

5. Eshtayev, A.A. (2023). O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta’siri. Green Economy and Development, 1(10), 72-78.

6. Soliyeva, S.T. (2024). O‘zbekistondagi turizm turlari. Obrazovaniye nauka i innovatsionnye idei v mire, 44(6), 82-86.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni. "2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish to‘g‘risida".

8. Buxoro viloyati hokimligi. Buxoro viloyatida turizm sohasi ko‘rsatkichlari (rasmiy statistik ma’lumotnoma), 2017–2026 yy.